



PLANTS OF THE MOLGUZAR MOUNTAIN RANGE

Bakhtiyor Yakubovich ZikirovTeacher of Jizzakh State Pedagogical University
Jizzakh, Uzbekistan**Nilufar Turapovna Mamatkulova**Teacher of Jizzakh State Pedagogical University
Jizzakh, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Malguzar Ridge, flora, vegetation cover, altitudinal zones, ephemerals, juniper stands, Jizzakh Region, Uzbekistan.

Received: 14.02.26**Accepted:** 15.02.26**Published:** 16.02.26

Abstract: The Malguzar Ridge (Jizzakh Region, Uzbekistan) has been thoroughly studied in terms of its vegetation cover and flora. A total of 1237 plant species have been recorded in the area, with their distribution determined by altitudinal zones and slope exposure. On northern slopes, vegetation biomass increases from 2 to 7.5 t/ha, while on southern slopes it does not exceed 2.7 t/ha. Ephemerals and ephemerooids, perennial herbs, shrubs, and juniper stands form the main component of the regional flora. The article is devoted to the issues of sustainable use of plant resources and conservation of biological diversity.

MOLGUZAR TOG' TIZMASI O'SIMLIKLARI

Bakhtiyor Yakubovich Zikirov

Jizzax davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Nilufar Turapovna MamatkulovaJizzax davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi
Jizzax, Uzbekistan

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Molguzar tog' tizmasi, flora, o'simlik qoplamasi, balandlik mintaqalari, efemerlar, archazorlar, Jizzax viloyati, O'zbekiston.

Annotatsiya: Molguzar tog' tizmasi o'simlik qoplamasi va florasi chuqur o'rganilgan. Hududda jami 1237 tur o'simlik qayd etilgan bo'lib, ular balandlik mintaqalari bo'yicha va yonbag'ir ekspozitsiyasiga qarab

moslashgan holda tarqalgan. Shimoliy yonbag'irlarda o'simlik massasi 2–7,5 t/ga gacha ortadi, janubiy yonbag'irlarda esa 2,7 t/ga dan oshmaydi. Efemer va efemeroid o'simliklar, o'tlar, butalar va archazorlar hudud florasining asosiy qismini tashkil etadi. Maqola o'simlik resurslaridan oqilona foydalanish va biologik xilma-xillikni muhofaza qilish masalalariga bag'ishlangan.

РАСТЕНИЯ МОЛГУЗАРСКОГО ГОРНОГО ХРЕБТА

Бахтиёр Якубович Зикиров

Преподаватель

Джизакский государственный педагогический университет

Джизак, Узбекистан

Нилуфар Тураповна Маматкулова

Преподаватель

Джизакский государственный педагогический университет

Джизак, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Молгузарский хребет, флора, растительный покров, высотные пояса, эфемеры, арчовники, Джизакская область, Узбекистан.

Аннотация: Молгузарский хребет (Джизакская область, Узбекистан) глубоко изучен в отношении растительного покрова и флоры. На территории зарегистрировано в общей сложности 1237 видов растений, распределение которых определяется высотными поясами и экспозицией склонов. На северных склонах биомасса растительности возрастает от 2 до 7,5 т/га, тогда как на южных склонах она не превышает 2,7 т/га. Эфемеры и эфемероиды, многолетние травы, кустарники и арчовые сообщества составляют основную часть флоры региона. Статья посвящена вопросам рационального использования растительных ресурсов и охраны биологического разнообразия.

Kirish. Molguzar tog' tizmasi o'simlik resurslarini chuqur o'rganish o'simlik resurslaridan oqilona foydalanish va hududda biologik xilma-xillikni muhofaza qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Hududning o'simlik qoplami joyning tuproqlari, geomorfologik va iqlimiy xususiyatlariga bog'liq holda rivojlangan. Turlicha litologik sharoitlar, relyef, iqlim va namlikka eng mos turlargina moslashib qolgan. Bu yerda o'simliklarning balandlik bo'yicha mintaqalanishi ko'zga yaqqol tashlanadi va u yonbag'irlar ekspozitsiyasiga muvofiq ravishda o'zgarib boradi.

Jizzax viloyati florasi 164 tur daraxt va butalar, 112 tur chala butalar, 1715 tur yoki 86,1 % o't o'simliklardan (1090 tur ko'p yillik, 625 tur bir yillik va ikki yillik) iborat. Molguzar tog' tizmasi tog' va tog'oldi tekisliklarida jami o'simliklarning 1237 turi uchraydi.

Ushbu ma'lumotlar ilmiy adabiyotlar, xususan Jizzax viloyati florasi kadastri va tabiiy sharoitlar haqidagi nashrlarga asoslanadi. Ma'lumotlar balandlik mintaqalari ya'ni tog' oldi tekisligi, adirlar, tog' balandlik mintaqasi, yonbag'ir ekspozitsiyasi, tuproq turi va relyef xususiyatlari bo'yicha tizimlashtirilgan.

Molguzar tog' tizmasi o'simlik resurslarini chuqur o'rganish o'simlik resurlaridan oqilona foydalanish va hududda biologik xilma-xillikni muhofaza qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Hududning o'simlik qoplami joyning tuproqlari, geomorfologik va iqlimiy xususiyatlariga bog'liq holda rivojlangan. Turlicha litologik sharoit va relef, iqlim va namlikka eng mos turlargina moslashib qolgan. Bu yerda o'simliklarning balandlik bo'yicha mintaqalanishi ko'zga yaqqol tashlanadi va u yonbag'irlar ekspozitsiyasiga muvofiq ravishda o'zgarib boradi. Janubiy yonbag'irlardan farq qilib, shimoliy yonbag'irlarda o't o'simliklar va butasimonlar keng tarqalgan. Shimoliy yonbag'irlarda o'simliklarning umumiy massasi 1200 m baland joylarda 2 t/ga dan 2400 metr balandliklarda 7,5 t/ga gacha ortib boradi. Janubiy yonbag'irlarda esa 2,7 t/ga dan ortmaydi.

Asosiy qism. Molguzar tizmasi shimoliy yonbag'ri tog' va tog' oldi tekisliklari, ya'ni Mirzacho'lining tutash hududlarida, lyosli jinslar tarqalgan qismida efemer, efemeroid va boshqa o't o'simliklar hamda chala butasimon shuvoq (*Artemisia*) kabilar o'sadi. Bu joylarda seryomg'ir bahor faslida avval efemerlar va efemeroidlar zich o'sib chiroyli manzara hosil qiladi. Bu faslda qorabosh (*Carex*), qo'ng'irbosh (*Poa*), boychechak (*Gagea*), binafsha (*Viola*), chuchmoma (*Ixiolirion*) kabilar barq urib o'sib hudud yashil tusga kiradi. Bulardan tashqari yana lola (*Tulipa*), gulsafsar (*Iris*) kabi piyozboshlilar, ayiqtovon (*Ranunculus*), mingbosh (*Convolvulus*), chalov (*Stipa*), astragal (*Astragalus*), darmana (*Artemisia* cina), ba'zan isiriq (*Peganum*) kabilar o'sadi.

Molguzar tizmasi tog' oldi tekisligiga tutash adir balandlik mintaqasida (400-500 metrdan 1200 metrgacha) relyefning balandlashuvi natijasida yog'in miqdori ortadi, yozgi harorat esa nisbatan pastroq bo'lib, tipik va oddiy bo'z tuproqlar keng tarqalgan. Bular o'z navbatida adirda har xil o'tlarni zich va baland bo'lib o'sishiga sabab bo'lgan. Lekin o'r-qirdan iborat bo'lgan adirlarning quyi qismi daryo, soy va vaqtli oqar suvlar bilan parchalab yuborilgan bo'lsa, yuqorigi qismida esa ba'zi tog' yonbag'irlari tik bo'lib ona jinslar ochilib qolgan. Binobarin, adirda o'simliklar qoplami yoppasiga tutash emas. Tik yonbag'irlar, doimiy va vaqtli oqar suvlar yuvib ketgan joylarda uzilib qolgan. Umumiy olganda adir mintaqasida undan quyi qismga nisbatan o'simlik turlari ko'p bo'lib, qalin o'sadi. Bir kv km maydonda 15-20 turga mansub bo'lgan 30 ming individ uchraydi. Adir o'simliklarining asosini efemer va efemeroidlar, ko'p yillik har xil o'tlar, butalar tashkil etadi. Adirda efemer va efemeroid o'simliklaridan qo'ng'irbosh (*Poa*),

yaltirbosh (*Bromus*), no‘xatak burchiq (*Lathyrus cicera*), chuchmoma (*Ixiolirion*), lola (*Tulipa*), oqquray (*Cullen*), gulxayri (*Alcea*), shashir (*Prangos*), qoqio‘t (*Taraxacum*) kabilar qalin o‘simliklar, vegetatsiya davri iyul oyigacha davom etadi. Bulardan tashqari yana shuvoq (*Artemisia*), qasmaldoq (*Aegilops*), tog‘arpa (*Hordeum*), shumtol (*Fraxinus*), cho‘lyalpiz (*Ziziphora tenuior*), kovrak (*Ferula*), chalov (*Stipa*), mingbosh (*Convolvulus*), otquloq (*Rumex*), achchiq shuvoq (*Artemisia absinthium*), zubturm bulduruqo‘ti (*Alisma plantago-aquatica*), qo‘ziquloq (*Phlomis*), oqkarrak (*Onopordum*), qiltiq (*Taeniatherum*), yersovun (*Leontice*), shirach (*Eremurus*) kabi o‘simliklar ham o‘sadi. Adirning yuqori qismida toshloq yerlarda astragal (*Astragalus*), akantolimon (*Acantholimon*), shalfey (*Salvia*), soylarda zirk (*Berberis*), chiya (*Prunus erythocarpa*), namatak (*Rosa*) kabi butalar, do‘lana (*Crataegus*), bodomcha (*Prunus spinosissima*), pista (*Pistacia*) kabi daraxtlar, ariq bo‘ylarida yalpiz (*Mentha*) qirqbo‘g‘im (*Equisetum*) ham uchraydi. Daryo vodiylarida esa tol (*Salix*), terak (*Populus*), grek yong‘og‘i (*Juglans regia*), olmurut (*Pyrus*), ko‘ksulton (*Prunus nachicevanica*), olcha (*Prunus*) va boshqa mevali daraxtlar o‘sadi. Hududning vohalarida esa barcha turdagi mevali va manzarali daraxtlarni uchratish mumkin.

O‘rganilayotgan hududda tog‘ balandlik mintaqasi 1200 metrdan Molguzar tizmasining eng baland (2621 m) qismigacha davom etadi. Bu balandliklarda relyef murakkab, nihoyatda parchalanib ketgan. Molguzar tizmasining shimoliy yonbag‘irlarida jigar rang va qo‘ng‘ir tog‘ o‘rmon tuproqlari uchraydi. Yog‘in ko‘proq tushadigan shimoliy yonbag‘ir bo‘lganligi uchun kichik-kichik maydonlarda bargli o‘rmonlar va har xil butazorlar ko‘p o‘sadi. Tog‘ balandlik mintaqasining quyi qismida ko‘proq o‘tloq o‘simliklari xususan, bug‘doyiq (*Agropyron*), kovrak (*Ferula*), shirach (*Eremurus*), oqso‘xta (*Dactylis*), isfarak (*Delphinium*), gulxayri (*Alcea*), lola (*Tulipa*), zanjabil (*Zingiber*), arslonquloq (*Leonurus*), yerchoy (*Geum*), binafsha (*Viola*), tog‘arpa (*Hordeum*), cho‘chqayoli (*Bromus tectorum*), qiltiq (*Taeniatherum*), qasmaldoq (*Aegilops*), tulkiqyuruq (*Prangos pabularia*), chayir (*Bothriochloa*), yalpiz (*Mentha*), kiyiko‘ti (*Ziziphora*), shuvoq (*Artemisia*), chalov (*Stipa*) kabilar o‘sadi. Tog‘ mintaqasining nisbatan qurg‘oqchil qismlarida esa, tog‘saqich (*Scorzonera*), akantolimon (*Acantholimon*), astragal (*Astragalus*), tog‘yalpiz (*Ziziphora pamirolaica*), betaga (*Festuca*), chalov (*Stipa*), shuvoq (*Artemisia*) kabi o‘simliklar uchraydi. Tog‘ balandlik mintaqasida shuningdek, archazorlar anchagina maydonni egallaydi. Bu yerda archaning uch turi – Zarafshon archasi (*Juniperus seravschanica*), yarim sharsimon archa (*Juniperus semiglobosa*) va Turkiston archasi (*Juniperus turkestanica*) o‘sadi. Zarafshon archasi ko‘proq 1200-2200 m baland joylarda, yarim sharsimon archalar esa 1800-2700 m balandliklarda, Turkiston archasi 2600 m va undan baland joylarda o‘sadi. Archazorlar ko‘proq nisbatan qurg‘oqchil va toshloq yerlarda uchraydi. Ular asta-sekin o‘simlik bo‘yi 20 m gacha yetadi hamda ming yildan ortiq yashaydi. Archazorlar tagida esa har xil o‘tlar va butalar o‘sadi. Tog‘

balandlik mintaqasida butalardan uchqat (*Lonicera*), namatak (*Rosa*), irg'ay (*Cotoneaster*), zirk (*Berberis*), maymunjon (*Rubus*), yovvoyi uzum (*Vitis vinifera*), qatrang'i (*Celtis*), bodomcha (*Prunus spinosissima*) kabilar mavjud.

Hududda yana qoratog' piyoz (*Allium karataviense*), anzur piyoz (*Allium altissimum*), zira (*Elwendia*), ravoch (*Rheum*), toron (*Polygonum*), Turkiston ravochi yoki tuyayaproq (*Rheum turkestanicum*), tog'jambil (*Thymus*), kiyiko'ti (*Ziziphora*), tog'saqich (*Scorzonera*) kabi foydali va dorivor o'simliklar ham uchraydi.

Xulosa. Molguzar tog' tizmasi florasi o'ziga xos xilma-xillikka ega bo'lib, uni muhofaza qilish va oqilona foydalanish kelajakdagi tadqiqotlar uchun muhim yo'nalish hisoblanadi. Archazorlar, dorivor o'simliklar va endemik turlar alohida e'tiborga muhtoj.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. L.A. Alibekov, S.A. Nishanov. Prirodniye usloviya i resursi Djizakskoy oblasti. Tashkent: «Uzbekistan», 1978.
2. Tojibayev K.Sh., Beshko N.Y. va boshq. Kadastr flori Uzbekistana: Djizakskaya oblast. Tashkent, 2021.
3. Zikirov B.Y. GAT analysis of the slope levels of the northern slope of the Malguzar mountains. «Qoraqalpog'istonda fan va ta'lim» jurnali, 2/2-son, 2025.
4. E.T. Axmedov, E.T. Berdiyev. Dorivor o'simliklarni yetishtirish texnologiyasi. Toshkent, 2017